



**IMOM AL- BUXTORIY: HADIS ILMINING YETAKCHI IMOMI
VA UNING ILMIY MEROSI**

Sanakulova Nilufar Aktamkulovna

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali. Tarix fakulteti
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolaqa Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy merosi va uning islom dunyosiga ta'siri yoritiladi. Asosiy e'tibor uning "Sahih al- Buxoriy" asarining shakllanishi, hadislarga bo'lgan yondashuvi va ularga qo'ygan mezonlariga qaratiladi. Shuningdek, ustoz va shogirtlari, boshqa ilmiy asarlari va uning tarixiy ahamiyatiham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Imom al- Buxoriy, hadis ilmi,sahih hadislar, isnod, isnod tanqidi,islom ilmi.*

Hadis ilmi islom ilmlarining eng muhim sohalaridan biri bo'lib, bu soha asosan Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning so'zlari, amallari va taqririy hadislarini jamlash, tasniflash va ishonchligini aniqlash bilan bog'liq. Ushbu sohaga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biri-Imom al-Buxoriy(810-870)dir. Uning "Sahih al-Buxoriy" asari Qur'onidan keying eng ishonchli manba sifatida tan olingan.

Mazkur maqolada Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati va merosi tahlil qilinadi.

Bolaligi va ta'lim olishi

Imom al-Buxoriy 810-yil 21-iyulda Buxoro shahrida tug'ilgan. Ma'lum bo'lishicha, uning otasining bobosi birinchi islom qabul qilganlardan bo'lgan. Uning otasi muqaddas rivoyatlar baxshilaridan bo'lgan. To'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra al-Buxoriy bo'lib, otasi erta vafot etganligi sababli onasi uning tarbiyasi bilan shug'ullangan. Yoshligidanoq Qur'oni yod oldi va hadis ilmi bilan shug'ullana boshladi. 15 yoshida chiqqanidan so'ng, ilm izlab Misr, Xuroson, Bag'dod, Basra va Kufa kabi ilm markazlariga tashrif buyurdi. Hayoti davomida 1000 dan ortiq ulamolar bilan uchrashgan va 600 ming hadisni yod olgan. U hayotining 42 yilini izlanishlar bilan o'tkazadi. Rivoyatlarga ko'ra, u yuz minglab hadisni to'playdi.

Hadislarni tanlash mezonlari

Imom al-Buxoriy hadislarni qabul qilishda juda qat'iy mezonlarga amal qilgan:

-Isnodi uzluksiz bo'lisci- har bir roviy o'zidan oldingi roviydan bevosita eshitgan bo'lishi kerak.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



-Roviyarning adolatli va ishonchliligi – ular to’g’riso’z, dindor va eslab qolish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim.

-Hadis mazmunining Qur’on va boshqa sahih hadislari bilan mos kelishi- agar hadis Qur’on va boshqa sahih hadislari bilan zid bo’lsa, qabul qilinmagan.

“Sahih al-Buxoriy”ning shakllanishi

Imom al-Buxoriy ushbu asarni 16 yil davomida yaratdi. U 600 ming hadisdan 7275 tasini tanlab oldi. Takroriy hadislarni olib tashlagandan so’ng 2600 hadis qoldi. Kitob 97 bobdan iborat bo’lib, har bir bo’limda muayyan mavzuga oid hadislari jamlangan.

“Sahih al-Buxoriy” bugungi kunda ham eng sahih hadislari to’plami sifatida butun musulmon olamida e’tirof etiladi.

Imom al-Buxoriy nafaqat “Sahih al-Buxoriy”, balki boshqa muhim asarlar ham yaratgan:

“Al-Adab al-Mufrat”- axloq va odob qoidalariga oid hadislari.

“At-Tarix al-Kabir”- hadis roviylarining tarjimai hollari.

“Kitob al-Daufa”- zaif hadis roviylari haqida ma’lumot beruvchi asar.

Ustozi va hamkasblari

Imom al-Buxoriy ilm olishda quyidagi buyuk muhaddislardan foydalangan:

Imom Ahmad ibn Hanbal, Yahyo ibn Ma’in, Ali ibn al-Madiniy.

Mashhur shogirdlari

Imom Muslim- “Sahih Muslim” asarining muallifi.

Imom Abu Dovud- “Sunan Abu Dovud” kitobining muallifi.

Imom Tirmizi- “Sunan at-Tirmiziy” asarining muallifi.

Imom al-Buxoriyning so’nggi yillarda turli fitnalarga duch keldi. Ba’zi hasadgo’y kishilar uni tuhmat bilan Buxorodan chiqarib yuborishdi. U Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog’iga ko’chib o’tdi va 870-yil 1-avgust kuni vafot etdi.

Bugungi kunda uning maqbarasi Samarqand viloyati, Hartang qishlog’ida joylashgan bo’lib, musulmon olaming muqaddas maskanlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa: Imom al-Buxoriy butun hayotini hadis ilmini rivojlantirishga bag’ishlagan ulug’ muhaddis bo’lib, uning ilmi bugungi kunda ham musulmonlar uchun asaosiy manba hisoblanadi. Uning “Sahih al-Buxoriy” asari islomiy ilmlar ichida eng muhim manbalardan biri bo’lib qolmoqda.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ibn Hajar al- Asqaloniy-“Hadyu as-Sari”
- 2.Imom an-Navoiy-“Sharh Sahih Muslim”
- 3.Dr. Subhi as-Solih-“Hadis ilmining asoslari”
- 4.Shayx Muhammad Zakariyyo Kandehlaviy-“Hadis olamining buyuk muhaddislari”.

